

BUXORO VOHASI HUNARMANDLARINING KASBIY TARIXIDAGI URF-ODAT VA UDUMLARI.**To'rayev Anvar Ismoilovich**

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14520964>

Annotatsiya. Maqolada an'anaviy hunarmandchilik rivojida hunarmand ustalar tomonidan tayorlangan gilamdo'zlik, arqondo'zlik, ipgazlama, to'qimachilik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bayon qilingan. Shuningdek uzoq asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining turli-tuman hunarlari o'ziga xos qadimiy an'analari mavjud bo'lib, O'rta Osiyoning iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy hayotida salmoqli o'rin egallagan Buxoro hunarlari avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga meros tarzda o'tib, hozirgi kunga qadar sayqallanib kelganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik, bel bog'lash, to'qimachiligi, gilamdo'zlik, arqondo'zlik, ipgazlama, to'qimachilik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik, kovushdo'zlik, tikuvchilik, temirchilik, cho'yangarlik, misgarlik, qulfsizlik, tunikasozilik, yog'ochsozlik, yog'och o'ymakorlik, aravaso'zlik, qamishsozlik, kosibchilik.

CUSTOMS AND TRADITIONS IN THE PROFESSIONAL HISTORY OF BUKHARA OASIS CRAFTSMEN.

Abstract. The article describes the achievements made by artisans in the development of traditional crafts in the fields of carpet weaving, rope weaving, yarn weaving, weaving, embroidery, and headdress weaving. It is also stated that the various crafts of the Uzbek people, which have a long history, have their own ancient traditions, and the crafts of Bukhara, which have occupied a significant place in the economic, political, and cultural life of Central Asia, have been passed down from generation to generation, from master to disciple, and have been refined to this day.

Keywords: Weaving, belting, weaving, carpet weaving, rope making, yarn weaving, weaving, embroidery, hat making, shoe making, sewing, blacksmithing, cast iron, coppersmithing, locksmithing, tunic making, woodworking, wood carving, cart making, reed making, crafts.

ТРАДИЦИИ И ТРАДИЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИСТОРИИ РЕМЕСЛЕННИКОВ БУХАРСКОГО ОАЗИСА.

Аннотация. В статье описаны достижения, достигнутые мастерами в области ковроткачества, веревочного плетения, резьбонарезания, ткачества, вышивки, шляпного дела в развитии традиционных ремесел. Также различные ремесла узбекского народа, имеющие многовековую историю, имеют свои древние традиции. Утверждается, что они передавались по наследству от учителя к ученику и совершенствуются до сих пор.

Ключевые слова: Текстиль, ремни, текстиль, ковроткачество, веревочное плетение, резьба, ткачество, вышивка, шляпное производство, рукоделие, портняжное дело, кузнечное дело, слесарное дело, медное дело, слесарное дело, туникоделие, деревообработка, резьба по дереву, тележное дело, изготовление тростника, кузнечное дело.

KIRISH

To'plangan etnografik manbalarga asosanib, vohada hozirga qadar qirqdan ziyod oilaviy kasb va hunarlar mavjud ekanligini qayd etish mumkin. Bular asosan, jun to'qimachiligi, gilamdo'zlik, arqondo'zlik, ipgazlama, to'qimachilik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik, kovushdo'zlik, tikuvchilik, temirchilik, cho'yangarlik, misgarlik, qulfsozlik, tunikasoziq, yog'ochsozlik, yog'och o'ymakorlik, aravasoziq, qamishsoziq, kosibchilik, nonvoy oshpazlik, quduqsoziq, o'ymakorlik, sovungarlik, sartaroshlik, ovchilik va boshqa hunarlar bo'lib, ular mahalliy aholining amaliy va hayotning kundalik mashg'ulotiga aylangan. Bu hunarlar qatorida ip-gazlama, jun to'qimachilik, temirchilik, sartaroshlik bilan mashg'ul bo'lgan to'qimachi, shuningdek, kashtado'zlarning pirlari esga olinib, ularni g'azabga keltirmaslik uchun asbob-uskunalarini hamda do'konlarni ozoda saqlaganlar.

ASOSIY QISM

To'qimachi va chevarlar ish faoliyatida doimo tahorat qilib, ozoda yurishi shart bo'lgan. Har kuni ertalab ish boshlanishidan oldin, o'z pirlaridan madad so'rab, fотиha o'qiganlar. To'qimachilar do'kon yoki o'rmon dastgohida ipni tizib, chiqqandan so'ng uni to'qish oldidan tovuq so'yib, qon chiqarganlar, ya'ni, pirimiz ruhlari shod bo'lsin, to'qish jarayonida iplar tugun bo'lib qolmasin, degan istakni bildirganlar[4,28]. Shuningdek, chevar hamda kashta tikuvchi chevarlar kashtado'zlik san'atini tajribali chizmakashdan o'rganib, ulardan kasb sirlarini o'rganganlar.

Hozir ham qo'l olish kashtachilikning o'ziga xos an'anasi bo'lib, bugunga qadar ham qishloq chevarlari orasida saqlanib kelinmoqda.

Yirik kashta tikuvchi chevarlarning har yili yoki ikki yilda bir marta "is" chiqarib, chizmakash yoki mulladan qo'l olish odati bilan bog'liq udum bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Dehqonchilik marosimlarida "bova" (bobo) asosiy salmoqli o'ringa ega bo'lgan bo'lsa, yoshi ulug'lar hunarmandchilik va hunarmandlar orasidagi barcha muammolarni bartaraf qilib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borganlar. Agar do'kon ozoda bo'lmasa asbob-uskunalar tartibsiz holda sochilib yotgan bo'lsa, usta, halifa yoki shogirdning ust-boshlari iflos bo'lsa, shuningdek, xaridor bilan qiladigan muomalalari qo'pol bo'lsa, ularga qattiq tanbeh berilib, bundan keyin bu kabi holatlarni takrorlamaslikka chaqirilgan. Aksariyat vohada bova, ayrim hududlarda bobo (Buxoro shahri) deb yuritilgan shaxslar ishlarda tartib intizomni nazorat qilganlar.

Bobo uyushma a'zolarining barcha marakalariga boshchilik qilib, uni o'tkazish tartibini qattiq nazorat ostiga olib turgan. Shogird tarbiyalanib, ustalik darajasiga yetganligi uchun o'tkaziladigan "bel bog'lash" marosimiga bobo rahbar bo'lgan. Turli marakalarni o'tkazishdan tashqari hunarmandlar har yili "guli surx" (qizil gul) bayrami vaqtida bobo boshchiligida Hazrat Bohouddin Naqshband qabrlari oldida "arvohi pir" marosimini o'tkazishgan. Bir oy davom etgan bu bayramni bir haftasi to'liq hunarmandlarga berilgan bo'lib, ular shu davrda o'z kasblari bilan shug'ullanmaganlar. Hunarmandlar ushbu bir oy ichida o'z hunarlari "pir"ning ruhini shod qilishi uchun bobo boshchiligida turli marosimlar o'tkazganlar[2,322]. Bundan tashqari, usta biror bir gunoh ish qilsa (asbob dastgohlarni tepsa, jahl bilan bu uskunalarni sindirsa yoki birovni haqoratlasa) bobo bunday ustani ishdan chetlashtirish do'konini yoptirishgacha haqli bo'lgan.

Bundaylarning gunohidan forig' bo'lish uchun usta uyushma a'zolarini to'plab, o'z hisobidan "arvohi pir" marosimini o'tkazib bergan. Bu marosimda bobo boshchiligidagi ustalar gunohlik qilgan hunarmandga pand-nasihatlar qilib, tavbasiga tayantirganlar.

Bobo hunarmandlar orasida yuksak obro' va nufuzga ega bo'lgan. U o'z sohasini qunt bilan egallagan kishi bo'lganligi uchun yosh hunarmandlar kasbiy sohada va hayotdan o'rnak olganlar. Ikkinchidan, moddiy jihatdan qiynalgan hunarmand faqat shu hayotiy boy tajribaga ega shaxsdan yordam olib turishgan. Uchinchidan, hunarmandlar moli bozordan qaytsa, shu kishiga sotgan. Boboning bo'sh vaqti ko'p bo'lganligi uchun vaqtida sotilmay qolgan tovarlarni asta-sekinlik bilan xaridorlarga sotgan. Bu usta hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan. Hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash kasb-hunarlarini o'rgatishda oqsoqollarni o'rnini ham alohida aytib o'tish joiz. Oqsoqol-hunarmandlar toifasiga oid mustaqil ustalardan bo'lib, kundalik faoliyati, hunarmandchilik mahsulotlarini yetishtirishdan iborat edi. Oqsoqol bobodan keyingi o'rinda turuvchi uyushma rahbari bo'lib, u bajaradigan vazifalar "bobo"nikiga qaraganda keng qamrovli edi.

Chunki, oqsoqol boshqa ustalarga nisbatan tajribali, yosh jihatdan ulug' kishi bo'lgan. U kasbdoshlari orasida katta obro'-e'tiborga ega shaxs hisoblangan. Oqsoqol barcha ijtimoiy ishlarga rahbarlik qilib kelgan. U bobo kabi "Hunarmandchilik risola"larining bilimdoni sifatida vaqti-vaqti bilan hunarmandlar ishlarini zimdan kuzatib turgan. Hunarmandlarning ijtimoiy faoliyati o'z kasb-korlaridan boshqa sohalarga ham yo'naltirilgan bo'lib, jumladan, ariq va hovuzlarni qazish, do'kon, uy, o'choq, dor va yog'ochlarni qayta sozlash edi. Shuningdek, barcha hunarmandlar to'planib uyushqoqlik bilan ish ko'rganlar. Hunarmandchilik marosimlarini tashkil etish va ularni nishonlashda bosh-qosh bo'lgan, u usta, xalfa, shogird o'rtasidagi munosabatlarni ular orasida paydo bo'ladigan nizoli masalalarni hal qilgan. Hunarmand usta o'z kasb-hunarini o'z qo'l ostidagi xalfa shogirdga o'rgatishga mas'ul bo'lib, bu haqda shogirdning ota-onasi bilan kelishilgan. Usta o'z hisobidan xalfa va shogirdlarini kiyintirgan, ovqatlantirgan shogird hunarni

pulga o'rgana boshlaganidan so'ng oz-oz miqdorda ish haqi ham bera boshlagan. Usta shogirdni mustaqil ishlay olishini o'zi hal qilgan. Agar shogird uquvli, chaqqon, halol-pokiza mehnat qilib kelayotgan bo'lsa, ustalar imkon qadar uni qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilgan. Tayyor mahsulotni ustaning shaxsan o'zi baholagan va sotgan hamda tovar ishlab chiqarishga asqotadigan xom-ashyo, asbob-uskunalarni o'zi sotib olgan. Mahsulot ishlab chiqarishdan keladigan foyda va zararga ustaning o'zi javobgar bo'lgan [1,12]. Hunarmandlar ichida xalfa-shogirdlik darajasidan yuqori pog'onaga ko'tarilgan hunarmand bo'lib, u o'z ustozini yoki boshqa ustalariga yollanib, mehnat qilgan.

Shogird biror bir hunar sohibi bo'lishi uchun shu hunar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandga shogird tushgan shaxs hisoblangan. Ota-ona o'z farzandini ma'lum bir kasb ustasi bo'lgan hunarmand huzuriga olib kelgan. Bolani shogirdlikka olish kelishilgandan so'ng, ota "eti sizniki, suyagi bizniki", deb fотиha o'qib, bolasini ustaga qoldirib ketgan.

Hozirda bu urf-odatlar bir muncha o'zgargan bo'lib, masalan, ustaga dasturxon tuzash, uning ichiga turli xil shirinliklar, matolar chopon qo'yish odati yo'qolib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shogirdga usta u shogirdlikka qabul qilingan birinchi yillarda hech qanday haq to'lamagan, lekin uni kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ta'minlagan. Shogird bu davrda ustaning uy-ro'zg'or ishlarini bajarib ham turgan. U bo'sh vaqtlarida do'konga kirib usta va xalfaning bajarayotgan ishlarini kuzatib borib, asta-sekin hunar sirlaridan voqif bo'lib borgan. Zardo'zlik, zargarlik, kandakorlik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik kabi hunarlarni o'rgatishga 10-15 yoshgacha bo'lgan bolalar shogirdlikka olingan. Kulolchilik, charx yasash, cho'yangarlik, temirchilik, quruvchilik kabi og'ir mehnatga asoslangan hunarlarda shogirdlikka 15 yoshdan katta o'spirinlarga qabul qilingan.

Buxoro vohasi hunarmandlari ko'p hollarda hunar sir-asrorlarini iloji boricha o'z farzandlariga o'rgatishga harakat qilganlar. Agar ustaning farzandi bo'lmasa, u shogirdlikka eng yaqin qarindoshi va begona kishining farzandlarini qabul qilgan.

Shogird o'z kasbining sir-asrorlaridan voqif bo'lsa hamda yetuk usta bo'lganligini isbotlash uchun o'z kasbiga oid biror bir nodir buyumni o'z qo'li bilan mustaqil tayyorlab, uni oqsoqol va usta nazoratidan o'tkazgan. Agar bu buyum ularga ma'qul bo'lsa, shogird "bel bog'lash" marosimiga tayyorgarlik ko'ra boshlagan. Shogird "bel bog'lash" marosimini o'tkazish uchun o'z halol mehnati, faoliyati davomida topgan mablag'idan sarf xarajat qilgan. Bu holat kulolchilikda boshqacha bo'lib, usta shogirdga mustaqil bitta xumdon pishirishga ruxsat bergan va undan kelgan daromad shogirdniki hisoblanib, mablag' marosimga sarflangan.

Avvalo bu marosimni o'tkazish uchun shogird oqsoqol huzuriga maslahat olgani borgan.

Oqsoqol shogirdning moddiy ahvoliga qarab, marosimni qanday tashkil qilish, kimlarni taklif etish va dasturxonni qanday bezash haqida maslahatlar bergan. Shundan so'ng, shogird o'z

ustasiga sarp, bobo va oqsoqolga chopon, qishloq imomiga dasturxon tuzib, ularni o'z uyiga mehmondorchilikka chorlagan. Belgilangan kunda barcha taklif qilinganlar shogirdning uyida to'planishganlar. Qishloq imomi fotiha o'qib marosimni boshlab bergan. Usta shogirdini davra o'rtasiga turg'izib qo'yib, uning belidagi belbog'ini mahkam siqib bog'lab qo'ygan. Shogird o'z navbatida ustaga olgan sarpolarini taqdim qilib, bobo esa shogirdga hunarning qonun qoidalari haqida va'z o'qigan. Va'z va nasihatda hunardagi barcha talablarga qat'iy bo'ysunish shogirdga obdon yana bir bor uqtirilgan. Shogird barcha talab va qoidalarni bajarishga so'z berib, bobo yelkasiga chopon yopgan. Shu bilan marosimning asosiy qismi tugab, davraga dasturxon yozilib, unga non, shirinliklar, palov va choy tortilgan. Dasturxondagi taomlar iste'mol qilinib bo'linganidan so'ng mahalla imomi Qur'on suralarini o'qib, dasturxonga fotiha bergan. Shu orqali "bel bog'lash" marosimi ham tugagan. Bu marosimdan so'ng, usta martabasiga erishgan shogird o'zi mustaqil ishlay boshlagan.

Buxoro hunarmandchilik marosimlaridan tashqari sayllar ham o'tkazib turilgan.

Shundaylardan Buxoro amirining shahardan tashqaridagi Sitorai Mohi-Xossada har yili "bozor sayli" bo'lib, unda xalq amaliy san'ati turlaridan kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, pichoqchilik, do'ppido'zlik va boshqa hunarmandlar qatorida zargarlar ham o'z buyumlarini butun xalq ommasiga namoyish etishgan. Bu ko'rgazma Mohi-Xossada ikki haftagacha davom etgan. Bu sayl har yilgi o'tkaziladigan xalqning an'anaviy bayrami hisoblanib, hukumat tomonidan rasmiylashtirilgan. Hunarmandchilik buyumlarini sotishga qulay bo'lishi uchun vaqtinchalik rastalar qurilib bu tadbirlarning barchasiga ustalar oqsoqoli rahbarlik qilib kelgan. Bunday sayllarning bo'lib turishi, xalq ommaviy san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Amirlik davrida hamma hunarlar kabi zardo'zlik muqaddas hisoblanib kelingan.

Chunki, har bir hunarga, kasbga bo'lgan hurmat cheksiz bo'lib, ustalar har bir qilgan ishlarini vijdon amri bilan halol bajarishgan. Ustalarning aytishicha, eng birinchi usta zardo'z, eng birinchi ustoz G'oyibona homiy hamda pir Hazrat Yusuf bo'lgan deyishadi[3,83]. Shu haqda ko'pgina risolalar bo'lib, uni o'rganish qonun qoidalari zardo'zlik kasbining homiysi "arvohi pir"ga sig'inish uzoq vaqtgacha davom etib kelganini bildiradi. "Guli surx" ayyomida, ya'ni, ilk bahor kunlarida zardo'zlar Buxoro yaqinidagi Bahouddin qishlog'iga kelib, qo'y so'yib, xudoyi qilishadi. Pirzodalar arvohiga bag'ishlab, haftaning payshanba, yakshanba kunlari barcha zardo'zlar to'planishgan. Qiroatxonlik dasturxon ustida bo'lib o'tgan suhbatda risolachi zardo'zlikni kelib chiqish qonun-qoidalari va unga o'qiladigan duolarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bergan.

XULOSA

Risolachiga qiroatidan so'ng kishilar sovg'a salomlar in'om etib ularni uylariga kuzatib qo'yishgan. Bunday hurmat va ehtirom esa ularni zardo'zlik kasbiga bo'lgan e'tiqodini yanada

oshirishga turtki bo'lgan. Shunday qilib, hunarmandchilikka oid urf-odat, udum va marosimlar uzoq davrlar davomida shakllanib, sayqallashib ajdodlardan avlodlarga meros sifatida qolib, bugungi hunarmandchilik tarmoqlari takomilida asosiy omillardan biri bo'lib kelmoqda.

REFERENCES

1. Абдуллаев Т. XIX асрда ўзбек кандокорлиги.-Т.: Фан; 1974. Б.185.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Меҳнат; 1991. Б 520.
3. Пешерева Е.М. Бухарский золотошей / сб.М А Э. М.: 1995.- С. 203.
4. О'raqov M.B. Zarafshon vohasi qishloq aholisining to'qimachilik va chevarchilik hunari. Tarix fan. nom diss...-Т.: 1993.- В. 152.
5. To'Rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
6. Ismailovich T. A. Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-52.
7. To'rayev A. O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
8. To'rayev A. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪАНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
9. Тўраев А. И. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪАНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР: Тураев Анвар Исмаилович, Кафедра “Всеобщей истории” Бухарского государственного университета старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 7-13.
10. To'rayev A. English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
11. To'rayev A. БУХОРО ТУРКМАНЛАРИ БИЛАН БОГ 'ЛИҚ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
12. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.
13. To'Rayev A. I. БУХОРО VOHASIDA YASHAB KELGAN ТУРКМАНЛАР HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1165-1170.

14. To'rayev A. A ЎҒУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Хорижиймақола //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.
15. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
16. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
17. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
18. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
19. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
20. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
21. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29533>
22. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568–572. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28329>
23. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179–183. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2698>
24. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963

25. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
26. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
27. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
28. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
29. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
30. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
31. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
32. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
33. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
34. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
35. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
36. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
37. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
38. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
39. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
40. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.

41. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
42. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
43. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
44. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
45. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
46. Sadullayev, U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376–385.
47. Sadullaev, U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344–352.
48. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238–241.
49. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
50. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
51. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
52. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
53. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
54. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).

55. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
56. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
57. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
58. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
59. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
60. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.